

O'zbekiston

Metama'lumot

*(To'liq bandlik ekvivalentida tadqiqotchilar soni (to'liq bandlik ekvivalenti)
million aholi uchun)*

Ishlab chiqilgan sana: 16.08.2021- y.

Oxirgi yangilangan sana: 16.08.2021- y.

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi 2021- yil 11- avgustda tasdiqlangan "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun statistikani tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017- yil 2- sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"ga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika hisobotlarini, ma'muriy ma'lumotlarni va statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlarga tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan talab qilib olish huquqiga ega.

2017- yil 12- sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning axborot almashish tizimlari doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlari hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017- yil sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini ta‘minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy

Komissiyasining (UNECE) Statistik biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Markaziy apparatda 4 kishi va hududiy boshqarmalarning tarmoq bo'limlarida 3 kishidan, o'qituvchilar sonini to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirilishida ishtirok etadi.

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli.

Barcha xodimlar sohaga tegishli bilim va ko'nikmalarga ega. Xodimlar malakasini oshirishda Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar Markazi tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarida, ikki yilda kamida bir marotaba tahsil olishadi.

Har bir ish o'rne shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib boriladi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar ijtimoiy soha statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun etarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risidagi” qonunning 4- moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilangan.

1.1. Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalarini va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistika ma‘lumotlarini noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarini noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikdir. Statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonun veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma‘lumotlarini tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” qonunning 32- moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

1.2.3 Statistika ma‘lumotlarini belgilash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamiyatga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar ma‘lumot ishlab chiqaruvchi agentlik

tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarini YaIMga nisbatan foizda hisoblash metodologiyasi xalqaro standartlarga javob beradi va bu sohada xalqaro tavsiyalarga javob beradi va ushbu sohadagi xalqaro tavsiyalarga mutanosib.

Hisob-kitoblarda uslubiy asos-ma'lumotlar ushbu qoidalarning me'yoriy-huquqiy asoslariga mos keladi va YUNESKO statistika instituti (ISU) tomonidan tayyorlangan "Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari statistika bo'yicha qo'llanma" ga mos keladi).

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Hisobot ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari sohasida xizmat ko'rsatuvchi muassasalar, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlaydigan muassasalar tomonidan taqdim etiladi.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Istisnolar mavjud emas

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yo'q

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yo'q

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yo'q

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

TBEda tadqiqotchilar soni (to'liq ish bilan ta'minlanganlik ekvivalenti) O'zbekiston Respublikasi va hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha hisoblanadi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Korxonalarining kompleks va doimiy yangilanib borayotgan reestri korxonalarining statistik tekshiruvlarini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Statistik faoliyatni amalga oshirish uchun korxonalarining kompleks va doimiy yangilanadigan registri (korxonalarining yagona davlat registri), Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalarining yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi 274- sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 28- oktabrdagi" Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-2646- sonli qarorini amalga oshirish chora - tadbirlari" asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarni ro'yxatga olish tartib-qoidalari talablarga javob beradi (shu jumladan, yangi birliklarni qo'shish, mavjud bo'lgan birliklarni chiqarib tashlash va birlashish va mulkni o'zgartirish hisobini yuritish). Ma'lumotlar yig'ish dasturining kompleks xususiyatini ta'minlash uchun dastlabki ma'lumotlar doimiy ravishda tahlil qilinadi. Hisobot shakllari o'zgaruvchan vaziyatlarni hisobga olish uchun vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo'q

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi ularni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi tomonidan statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda yil yakunlari bo'yicha respublika va hududlar kesimida ishlab chiqiladi.

- 1-fan statistika hisoboti shakli "Oliy malakali ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarining bajarilishi va ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash to'g'risida" gi hisobot may oyida yillik axborotnoma.

- 2-fan "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirgan mikrofirmalar va kichik korxonalarni tekshirish savolnomasi" so'rovnomasining statistika hisoboti savolnomasi " may oyida yillik byulleten.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo‘q

3.3 Statistika usullari

3.3.1 Boshlang‘ich ma‘lumotlar bilan ishlashda statistika usullari (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari sohasidagi ushbu muassasalarning majburiy taqdim etilishi O‘zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to‘g‘risida"gi Qonuni bilan belgilanadi.

3.3.2 Boshqa statistika jarayonlari (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yo‘q

3.4 Ma‘lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo‘q

3.4.2 Oraliq ma‘lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo‘q

3.4.3 Yakuniy statistika ma‘lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Agar ilgari e‘lon qilingan ma‘lumotlar tafovutlari aniqlangan bo‘lsa, keyingi nashrlarda ushbu ma‘lumotlarga o‘zgartirishlar kiritiladi.

3.5 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo'q

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Ijtimoiy soha: - yillik hisobotga ko'ra.

4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Ijtimoiy soha- nashr davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar tarqatilgach, statistik qatorlar qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

EPZ (to'liq bandlik ekvivalenti) da tadqiqotchilar soni haqidagi ma'lumotlar 2003 yildan buyon dinamikada mavjud.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar MDH ma'lumotlari bilan qiyoslanadi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Bir million aholi uchun EPZ (to'liq bandlik ekvivalenti) da tadqiqotchilar soni bo'yicha hisob-kitob davlat statistika qo'mitasining saytida yiliga bir marta 1 nashr etiladi (Indikator 9.5.2).

Bundan tashqari, hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar (ar-geni bajargan shaxslar soni to'g'risida) yiliga bir marta "O'zbekiston Respublikasining 20-yilda ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish va innovatsiyalarining asosiy ko'rsatkichlari" axborotnomasida, statistik to'plamlarda : "O'zbekiston raqamlarda" va "O'zbekiston Respublikasining statistik yillik hisoboti»

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Yo'q

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik to'plamlarda qayd etilishicha, o'tgan yil davomida alohida ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilmoqda. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining saytiga joylashtirilgan, turli statistik to'plamlarda nashr etiladi(sm. punkt 4.2.3), jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovi asosida taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Bir million aholi uchun EPZ (to'liq bandlik ekvivalenti) bo'yicha tadqiqotchilar sonini hisoblash davlat statistika qo'mitasining saytida yiliga bir marta (ko'rsatkich 9.5.2) e'lon qilinadi.

Bundan tashqari, hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar (ar-geni bajargan shaxslar soni to'g'risida) yiliga bir marta "O'zbekiston Respublikasining 20 -yilda ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish va innovatsiyalarining asosiy ko'rsatkichlari" axborotnomasida, statistik to'plamlarda : "O'zbekiston raqamlarda" va "O'zbekiston Respublikasining statistik yillik hisoboti»

5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Maxsus foydalanuvchi so'rovlari uchun jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

"20__-yilda O'zbekiston Respublikasining ilmiy - texnik salohiyatini rivojlantirish va innovatsiyalarining asosiy ko'rsatkichlari" yillik byulleteni saytda har yili chop etiladi.

5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Elektron shakldagi ma'lumotlar Hukumat organlari va boshqa foydalanuvchilarning so'rovi asosida taqdim etiladi.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining «Rasmiy statistika to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom, «Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etish» Tartibi va boshqa normativ xujjatlarga ko'ra foydalanuvchilarning so'rovlari asosida belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy xati oraqali yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadvallar, statistik to'plamlar, tezkor ma'lumotlar, shuningdek, ikki tomonlama axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuv asosida taqdim etiladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika qo'mitasining veb-saytida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy Nizom joylashtirilgan.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejalari – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat statistika kuzatuvlari (shakl va so‘rovnomalar)shakllari va instrumentlarini takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

Yo‘q

9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O‘rta muddatlilari

Yo‘q

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Yo‘q

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O‘rta muddatli

Yo‘q

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Qirg'izov Dilshodbek Erkinbaevich
Lavozim:	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma:	
Idora:	
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	[998 71 2028070]
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	[d.kirgizov@stat.uz]